



SOBIQ SOVET TUZUMIDAN QOLGAN IQTISODIY MEROS, MUSTAQILLIK YILLARIDA AMALGA OSHIRILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR VA BOZOR HUQUQIY MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI

Baxriddinov O.J.

*NDKTU “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya”
kafedirasi assistenti*

Tayanch soʻzlar: sobiq Ittifoq, izolyatsiya davri, islohotlarning boshlanish davri, iqtisodiy oʻsishning tezlashuv davri, yangi hukumat - yangi islohotlar davri, pandemiya va pandemiyadan keying tiklanish davri.

Ключевые слова: бывший Союз, период изоляции, период начала реформ, период ускорения экономического роста, новое правительство - период новых реформ, период пандемии и восстановления после пандемии.

Key words: the former Union, the period of isolation, the period of the beginning of reforms, the period of accelerated economic growth, the new government - the period of new reforms, the period of the pandemic and recovery after the pandemic.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada sobiq ittifoq ajralib chiqqan Oʻzbekistonning iqtisodiy holadi, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va oʻzgarishlar xronologik jihatdan yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье в хронологическом порядке освещается экономическое положение Узбекистана, отделившегося от бывшего Союза, экономические реформы и преобразования, осуществленные за годы независимости.

SUMMARY:

This article chronologically highlights the economic situation of Uzbekistan, which separated from the former Soviet Union, economic reforms and transformations carried out during the years of independence.

Kirish. XX asrning soʻnggi oʻn yilligida jahonni eng muhim hodisalaridan biri Sobiq Ittifoqning parchalinishi va dunyodagi “sovuq urush”ning barham topishi boʻldi. Sobiq Ittifoq mustamlaka davlatlari mustaqillikka erishganlaridan soʻng, oʻzlarining rivojlanish yoʻllarini belgilab olishlariga toʻgʻri keldi. Zero, Sobiq Ittifoq davrida qurilgan, davlatning yakka hukmronligi (byurokratiya) ga asoslanib boshqariladigan iqtisodiyot bu davrda ancha eskirib oʻz

samaradorligini to‘la yoqotgan va bu vaqtga kelib bozor iqtisodiyotiga asosida qurilgan demokratik g‘arb iqtisodiyoti o‘zining ustunligini va samaradorligini ko‘rsatgan edi. Sobiq Ittifoqdan ajralib chiqqan bir qator davlatlar o‘zlarining taraqqiyot yo‘llarini belgilab olishlari lozim edi.

“O‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘limiz – bu gul bilan qoplangan yo‘l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo‘lish va poklanish, mafkuraviy illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo‘lidir”.

Muhokama va natijalar. Sobiq Ittifoqdan yurtimizga ko‘plab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy muammolar meros bo‘lib qolgan edi. Bu muammolarni yechish esa mashaqqatli va uzoq davrli mehnatni talab etar edi. Zero, bu muammolar bir-ikki yilda emas, balki Sobiq Ittifoqning yuzaga kelishi (1922-yil 30-dekabr) va unga yurtimizning qo‘shilishi (1925-yil 13-may)dan boshlab yuzaga kelgan edi.

“Bugun o‘sha davr to‘g‘risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo‘lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga - markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi“.

O‘zbekiston o‘z istiqloliga erishgan ilk kunlaridanoq sotsialistik iqtisodiyotdan qutilish va bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lini izlay boshladi. Bu jarayonda muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning o‘rni va ro‘li juda katta ahamiyatga egadir. Aynan, Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” ya’ni “o‘zbek moduli” O‘zbekistonni bozor iqtisodiyotiga kirib borishiga zamin hozirladi.

Ittifoqda amalga oshirilgan iqtisodiyotni markazlashganligi yurtimizni bozor iqtisodiyotiga qadam qo‘yishiga katta to‘siq bo‘lib xizmat qildi. Chunki, bozor iqtisodiyotining asosiy talabi bu ko‘p ukladli iqtisodiyot hisoblanib, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi ma‘lum bir darajani tashkil etishi lozim. Bozor iqtisodiyotiga davlat iqtisodiyotga faqatgina bilvosita aralshishi va uni iqtisodiy qonun-qoida asosida tartibga solib turishi kerak.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti to‘la qaror topgan g‘arb davlatlari davlat boshqaruvi iqtisodiyotga deyarli sezilmaydi. Ular faqatgina iqtisodiyotni ma‘lum bir iqtisodiy qonunlar asosida tartibga soladi. Bu esa G‘arb iqtisodiyotini rivojlanishiga sabab bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston ham bu masalaga alohida ahamiyat bermoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridayoq davlatni iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish yo‘lida qabul qilingan “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va



xususiylashtirish to‘g‘risida” (1991-yil 18-noyabr), “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”(1993-yil 7-may), “O‘zbekiston SSJ Davlat Reja Qo‘mitasini O‘zbekiston SSJ Iqtisodiyot Qo‘mitasiga aylantirish to‘g‘risida” (1990-yil 8-dekabr, PF-108) va boshalar shu kabi qonun va qarorlar, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasini tuzilishi (1992-yil fevral, funksiyalarini kengaytirilishi 1994) va boshqa prezident farmonlari, qarorlari davlatni iqtisodiyotga aralashuvuni kamaytirishga xizmat qildi.

Davlat mustaqilligini qo‘lga olgan O‘zbekistonga sobiq tuzumdan barbod bo‘lgan iqtisodiy va moliyaviy tizim, izdan chiqqan iqtisodiy boshqaruv mexanizmi va iqtisodiy munosabatlar meros bo‘lib qolgan edi. Umuman olganda Sobiq Ittifoqdan yurtimizga quydagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolar qolgan edi:

- ▶ To‘la markazlashgan iqtisodiyot;
- ▶ Yer osti va yer usti boyliklarda unumsiz foydalanish va zavod-fabrikalarni to‘la quvvatda ishlamasligi;
- ▶ Iqtisodiyotni faqatgina ma‘lum sohasiga qaratilgan e‘tibor, ya‘ni O‘zbekiston iqtisodiyotini faqat xomashyoni qayta ishlashga mo‘ljallangani.
- ▶ Qishloq xo‘jaligida paxta monakulturasini yo‘lga qo‘yilgani.
- ▶ Butun SSSR bo‘ylab mehnat taqsimotini noto‘g‘ri amalga oshirilgani, ya‘ni xomashyoni ishlovchi korxonalar bir davlatda, uni tayyorlovchi zavod va fabrika esa boshqasida.
- ▶ Kishilarni mehnatga bo‘lgan munosabati va layoqatsizligi va boshqalar.

Bularning barchasi respublika iqtisodiyotini ayanchli ahvolga solib qo‘ygan edi. Respublika korxonalarini sobiq Ittifoqning boshqa mintaqalaridagi korxonalar bilan bog‘langan bo‘lib, Ittifoq parchalangach, ular o‘rtasidagi aloqalar uzildi. Mustaqil Respublikalardagi islohotlar jarayonida korxonalar xususiylashtirildi, mulk egaligi, mahsulot ishlab chiqarish yo‘nalishlari o‘zgardi. Natijada korxonalarning bir-biriga xomashyo, asbob-uskunalar yetkazib berish jarayoni to‘xtab qoldi. Bu barcha respublikalar, jumladan, O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi, albatta.

O‘zbekistonning sanoat korxonalarida xomashyo va asbob-uskunalar taqchilligi vujudga kelib, xo‘jalik yuritish murakkablashib qoldi. Masalan, O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mashinasozligi zavodlari, to‘qimachilik va kimyo sanoati korxonalarini, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish keskin pasaydi. Natijada respublika bo‘yicha sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

pasaydi. Agar 1990- yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmini 100 foiz deb olsak, keyingi yillarda u (1991-yil 0,5%, 1992-yil 11,1%, 1993-yil 2,3%, 1994-yil 5,2%, 1995-yil 0,9%ga) pasayib, 1995- yilda 81,2 foizga tushdi. Bu esa yurtimiz aholisining yashash darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Aholi o'rtasida yangi hukumatga bo'lgan ishonch so'nib, sobiq sovetni qumsash ko'payishiga sabab bo'la boshladi. Lekin, hukumat tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar Iqtisodiyotni qayta tiklashga va samarali ishlash jarayoniga o'ta boshlashiga sabab bo'la boshladi.

Mustaqillik yillarida, O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilgan o'zgarishlarni besh bosqichga ajratish mumkun:

1. Izolyatsiya davri (1991-1995-yillar).

Bu davrda iqtisodiyot asosan davlat tomonidan himoyalash davri bo'lib, unda mavjud iqtisodiy holat bozor iqtisodiyotiga moslashtirilgan. Eksport va import to'la davlat ixtiyorida bo'lib, import tovarlari qattiq nazoratda bo'lgan. Natijada iqtisodiyotda pasayish ro'y berib, 1991-yil YIM miqdori 13.68 mlrd. dollordan 1995-yilga kelib, 10.56 mlrd. dollorga ya'ni 22.8%ga pasaygan.

2. Islohotlarning boshlanish davri (1996-2003-yillar).

Uzoq davr davlat iqtisodiyoti izolyatsiyada yashashi mumkun emas edi. Buni tushungan hukumat iqtisodiyotda islohotlarni amalga oshirishiga kirishdi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotda o'sish boshlanib, o'rtacha yillik 4 %ni tashkil etgan. Bu davrda YIM 2003-yilga kelib 18.2mlrd. dollorga yetgan.

3. Iqtisodiy o'sishning tezlashuv davri (2004-2015-yillar).

O'zbekiston uchun bu davr o'zining nisbiyligi bilan ajralib turadi. Bu davrda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va davlat rahnamoligida kiritilgan investitsiyalar bir tomondan davlat iqtisodiyotini o'sishga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan inflyatsiyani oldini olish uchun qo'llanilgan naqt pulni cheklash, chet el valyutasi bilan erkin muomila qilishga yo'l qo'ymaslik va qora bozorni vujudga kelishi aholining iqtisodiy jihatdan qiynalishiga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsada aholining real daromadi bu davrda 5 barobar o'sishga erishib, YIM mahsuloti 2010-yilda 39.3 mlrd. Dollorni tashkil etgan.

4. Yangi hukumat - yangi islohotlar davri (2016-2020-yillar).

Bu davr iqtisodiyotimizda yangilanish va yangi islohotlarni boshlanish davri bo'lib kirdi. Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida iqtisodiyot liberallashtirish jarayoni tezlashdi. Bir qator ichki iqtisodiy muammolar bartaraf etildi (naqt pul muammosi, chet el valyutasining rasmiy va bozor narxi tenglashuvi va boshqalar). Iqtisodiyga investitsiyalar oqimi ko'paytirildi. Xususan, 2019-yil ilk bor to'g'ridan -to'g'ri 4,2 milliard




Figura-1. O‘zbekiston Respublikasining 1991-2016-yillar davomidagi YIM %da.

investitsiya kiritildi. Bu 2018-yilga nisbatan 3,1milliard dollorga yoki 3,7 barobarga ko‘p. Investitsiyaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37%ga yetdi. Natijada 2019-yil YIM hajmi 57,9 mlrd. dollorga yetdi.

5. Pandemiya va pandemiyadan keying tiklanish davri (2021-2023-yillar).

Insoniyat tarixiga 2019-2020-yillar “Covid-2019” ya’ni pandemiya davri bo‘lib kirdi. Bu davrda muloqotning cheklanishi va davlatlar chegaralarining yopilishi iqtisodiy pasayishiga sabab bo‘ldi. Lekin shunday bo‘lsada, hukumat tominidan ko‘rilgan choralar iqtisodiyotni saqlab qolishga va rivojlanishiga sabab bo‘ldi. 2023-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekiston YIM hajmi 90.89 mlrd. dollorni tashkil etdi.

Xulosa. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, aholi real daromadini oshirish, davlat mulkini xususiylashtirish va farovon jamiyat qurish bugungi kun jamiyatining asosiy shartidir. Bu o‘rinda yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-yil “Harakatlar Strategiyasi” va unda keltirilgan uchinchi yo‘nalish (Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari)ga iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini

rag‘batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish bobini kiritilishi bu masala qanchalik bugungi kunda dolzarb ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda.

“Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – “Ekonomist” jurnali O‘zbekistonni 2019-yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – “Yil mamlakati” deb e’tirof etdi. Bunday baho barchamizga cheksiz g‘urur, iftixor va kuch bag‘ishlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaysizlar ”.

Iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirish, erkin tadbirkorlikni rivojlantirish, yurtimizda bozor iqtisodiyotini to‘la qaror topdirish, xalq farovonligi va yashash darajasi, yurtimiz YIM mahsulotini ko‘paytirish maqsadida islohotlar bugungi kunda ham davom ettirilib, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan “Taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston-2030” strategisi alohida mazmun kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A.: ”O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T: O‘zbekiston” 2011yil. 20-bet.
2. Karimov I.A.:”O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”, T.,”O‘zbekiston”, 1993-yil, 5-bet.
3. To‘xliyev N.:”O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti” ,T.,”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 1998, 22-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M:”Oliy Majlisga Murojaatnomasi”T.,2018.
5. “Harakatlar Strategiyasi”, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
6. Mirziyoyev Sh.M:” Oliy Majlisga Murojaatnomasi”T.,2019.
7. Baxriddinov O.J.: “Mustaqillik yillarida o‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning vujudga kelishi va uning yoshlar hayotida tutgan o‘rni”. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” № S/4(4) – 2024. 45-50-b.